



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF CRIMINOLOGY-RELATED LEXEMES (BASED ON ENGLISH AND UZBEK EXAMPLES)

Odinakhon Uzaqova*Lecturer, CAMU International Medical University**E-mail: odi378808@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: criminological lexicon, Uzbek language, terminology, borrowings, lexical-semantic groups, legal texts, pragmatics.

Received: 05.12.25**Accepted:** 06.12.25**Published:** 07.12.25

Abstract: Criminological lexicon is a specialized layer of language used in scientific and practical fields related to legislation, law enforcement, and the study of criminality. This article is dedicated to analyzing the semantic, morphological, and stylistic features of the criminological lexicon. The study identifies the influence of borrowed words from English, Turkish, Persian, Arabic, and Russian on the formation of this terminology. It also discusses the importance of contextual and pragmatic factors in the use of the lexicon. Special attention is given to the systematization, etymology, and functional features of lexical units found in Uzbek legal documents and academic texts. The article is intended for philologists, criminologists, and specialists in lexicography, and it contributes to the formation, development, and adaptation of Uzbek and English criminal terminology to the needs of society.

KRIMINOLOGIYAGA OID LEKSEMALARNING LEKSIK – SEMANTIK XUSUSIYATLARI (INGLIZ TILI VA O‘ZBEK TILLARIDA MISOLIDA)

Odinaxon Uzaqova*CAMU xalqaro tibbiyot universiteti o‘qituvchisi**E-mail: odi378808@gmail.com**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: kriminologik leksika, o‘zbek tili, terminologiya, o‘zlashma so‘zlar,

Annotatsiya: Kriminologik leksika qonunchilik, huquq – tartibot va jinoyatchilikni o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy va

leksik – semantik guruhlar, yuridik matnlar, pragmatika.

amaliy sohalarda qo'llaniladigan maxsus til qatlamidir. Ushbu maqola kriminologik leksikaning semantik, morfologik va stilistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Taqdqiqotda ingliz, turk, fors, arab va rus tillaridan olingan o'zlashma so'zlarning ushbu terminologiya sohasi shakllanishiga ta'siri aniqlanadi, shuningdek, leksikaning kontekstual va pragmatik omillari ahamiyati bayon etiladi. O'zbek yuridik hujjatlari va ilmiy matnlaridagi leksik birliklarning tizimlashtirilishi, etimologiyasi va funksional xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Maqola filologlar, kriminologlar va leksikografiya bo'yicha mutaxassislariga mo'ljallangan bo'lib, o'zbek va ingliz kriminal terminologiyasi shakllanishiga, rivojlanishiga va jamiyat talablariga moslashuviga xizmat qiladi.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСЕМ, СВЯЗАННЫХ С КРИМИНОЛОГИЕЙ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Одинаков Узакова

Преподаватель Международного медицинского университета SAMU

E-mail: odi378808@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:	
криминологический лексикон, узбекский язык, терминология, заимствования, лексико-семантические группы, юридические тексты, прагматика.		лексикон представляет собой специализированный слой языка, используемый в научной и практической сферах, связанных с законодательством, правоохранительной деятельностью и изучением преступности. Данная статья посвящена анализу семантических, морфологических и стилистических особенностей криминологического лексикона. В исследовании выявлено влияние заимствованных слов из английского, турецкого, персидского, арабского и русского языков на формирование этой терминологии. Также обсуждается важность контекстуальных и прагматических факторов в использовании лексикона. Особое внимание уделено систематизации, этимологии и функциональным особенностям лексических единиц, встречающихся в узбекских правовых документах и научных	Криминологический

текстах. Статья предназначена для филологов, криминологов и специалистов по лексикографии и способствует формированию, развитию и адаптации узбекской и английской криминологической терминологии в соответствии с потребностями общества.

Kirish. Kriminal terminologiya jinoyat tizimining murakkab jihatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu atamalar soha mutaxassislari — jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, yuristlar va tadqiqotchilar oʻrtasida aniq va standartlashtirilgan aloqa oʻrnatilishini taʼminlaydi (Gina Portuguese Gawon, 2016). Bu terminlarning ahamiyati shundaki, jinoyat harakatlari, huquqiy jarayonlar va sud qarorlarini aniq ifodalashga yordam beradi.

Kriminologik terminologiyaning jinoyat tizimidagi oʻrni koʻp qirrali boʻlib, u nazariy bilim bilan amaliy qoʻllanma vazifasini bajaradi. Bu, huquqiy jarayonda ishtirok etuvchi barcha tomonlarning bir xil tushunchaga ega boʻlishini taʼminlaydi, bu esa adolatli sud jarayoni uchun muhim hisoblanadi. Masalan, “jinoyat – protsessual huquq” kabi atamalar adliya tizimi faoliyatini tartibga soluvchi qonun va qoidalardan iborat boʻlib, ishlarning huquqiy tizimda qanday yuritilishini belgilaydi (Montoya, Brixx L., Jennifer De Jesus, Camile Joy Nisperos, Patricia Mae Alcazar, 2021).

Terminologiyadagi bunday izchillik nafaqat huquqiy aniqlikka hissa qoʻshadi, balki adliya tizimidagi turli boʻlimlar oʻrtasida samarali muloqot va hamkorlikni ham qoʻllab-quvvatlaydi. Standartlashtirilgan kriminologik atamalardan foydalanish xalqaro hamkorlikni ham osonlashtiradi.

Ingliz tilidagi kriminologik atamalar huquqiy amaliyotda, huquqni muhofaza qilish sohasida va jinoyatlarni tadqiq qilishga oid ilmiy izlanishlarda muhim oʻrin tutadi. Ushbu leksik qatlam huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va kriminologiya sohasidagi professional muloqotga xos boʻlgan terminlarni oʻz ichiga oladi [1, 45-50 b]. Maqola kriminologik leksikaning lingvistik, shu jumladan, uning semantik, morfologik va stilistik xususiyatlarini tahlil qiladi, shuningdek, oʻzlashish va pragmatik omillarning uning faoliyatiga taʼsirini izohlaydi.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlar qoʻllanildi:

- Leksik-semantik tahlil — oʻzbek va ingliz tillaridagi kriminologik leksikaning maʼno xususiyatlari va ularning guruhlanishi oʻrganildi.
- Etimologik tahlil — soʻzlarning kelib chiqishi va boshqa tillardan oʻzlashish jarayoni tahlil qilindi.
- Morfologik tahlil — soʻz yasash va ularning grammatik strukturasi oʻrganildi.

– Stilistik tahlil — kriminologik leksikaning rasmiy va noformal matnlardagi uslubiy xususiyatlari oʻrganildi.

– Pragmatik tahlil — kontekstual omillar, jumladan, huquqiy, ilmiy va ommaviy axborot vositalaridagi qoʻllanilish holatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot manbalari sifatida oʻzbek yuridik hujjatlari, ilmiy maqolalar, shuningdek ingliz tilidagi kriminologik terminologiya asosiy qilib olindi.

Muhokama. Oʻzbek tilidagi kriminologik leksikaning semantik xususiyatlari uning oʻziga xosligi va koʻp qatlamlilikini aks ettirish bilan farqlanadi. Bu leksikaning asosini terminologiyaning oʻzagi boʻlmish asl turkiy soʻzlar tashkil etadi [2, 23-32 b]. Ammo, fors, arab va rus tillaridan kirib kelgan soʻzlar ham ahamiyatlidir. Masalan, “jinoyat” soʻzi arab tilidan olingan boʻlib, oʻzbek tilida “qonunbuzarlik” (huquqbuzarlik) yoki qilmish (harakat) kabi soʻzlarning sinonimi boʻlib, jinoiy harkatlarni bildirish uchun qoʻllaniladi [6, 110-122 b]. Bu soʻzlar jinoyatning turli huquqiy, ijtimoiy va psixologik tomonlari bilan bogʻliq boʻlgan leksik – semantik guruhlarini tashkil etadi.

Longman lugʻatida inglizcha “crime” umumiy holda “illegal activities, yaʼni noqonuniy faoliyatlar” deb taʼriflangan.

Semantik maydon tahlili shuni koʻrsatadiki, “ayblov”, “himoya” yoki “sud” (rus tilidan olingan) kabi terminlar huquqiy matnlarda qoʻllanilishi sharti bilan aniq belgilangan maʼnolarga ega [3, 156-161 b]. Bunday soʻzlarni semantik tuzilishi aniqlik va birmaʼnolikni bildirib, yuridik aloqa uchun juda muhimdir. Shu bilan bir qatorda, kontekstga qarab, terminlar ilmiy matnlarda yoki ommaviy axborot vositalarida qoʻshimcha maʼno ifodalashi ham mumkin. [4, 155-171 b].

Oʻzbek tilidagi kriminologik leksikaning morfologik tuzilishi koʻp jihatdan turkiy tillardagi soʻz yasallishining umumiy qoidalalariga boʻysunadi. [2, 23-32 b]. Masalan, “jinoyat” oʻzagiga “-chi” qoʻshimchasi qoʻshilsa, “jinoyatchi” hosil boʻladi. Xuddi shunday, “huquq” soʻzidan “huquqbuzar” kabi murakkab soʻzlar yasaladi. Bu jarayonlar oʻzbek tilining morfologik xususiyatlariga mos keladi, lekin kriminologik leksikada rasmiy va kasbiy kontekstga xos affiksalar koʻproq qoʻllaniladi.

Ingliz tilida mavjud soʻzlarga oʻzbek tilidagi kabi qoʻshimchalar (prefiks va suffiksalar) qoʻshish orqali yangi soʻzlar hosil qilinadi. Misol uchun, criminal — crime (jinoyat) soʻziga -inal qoʻshimchasi qoʻshilib, “jinoyatchi” maʼnosidagi sifat hosil qilinadi, illegal — legal (qonuniy) soʻziga il- (inkor prefiksi) qoʻshilib, “noqonuniy” maʼnosi paydo boʻladi (Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language, 2003)

Rus tilidan oʻzlashgan “sud”, “prokuror” kabi soʻzlar oʻzbek tilining fonetik va orfografik normalariga moslashgan holda oʻzining asl shaklini saqlab qoladi [4, 155-171 b]. “Adolat” yoki

“jazo” kabi arab va fors tillaridan kirib kelgan soʻzlar uzoq integratsiya tarixiga ega boʻlib, oʻzbek tiliga toʻliq assimillatsiya qilingan boʻlib, kamdan – kam morfologik oʻzgarishlarga uchraydi [6, 110-122 b].

Ingliz tilidagi terminlarning ayrimlarida boshqa tillardan, xususan lotin va fransuz tillaridan olib kelingan “felony” — eski fransuzcha “fêlonie” soʻzidan, “alibi” — lotincha “boshqa joyda” maʼnosini ifodalab, ingliz huquqiy tiliga kiritilgan soʻzlar hisoblanadi (Haugen, E. The Analysis of Linguistic Borrowing, 1950)

Kriminologik leksikaning stilistik xususiyatlari uning rasmiy kontekslarda, masalan, huquqiy hujjatlar va ilmiy maqolalarda qoʻllanilishi bilan belgilanadi. Ushbu leksika neytral va rasmiy uslub bilan ajralib turadi, bu aniqlik va obyektivlikni taʼminlaydi [3, 156-161 b]. “Qonun”, “javobgarlik” yoki “jarima” kabi terminlar qatʼiy maʼlumotlarni emotsional maʼnoga ega boʻlmagan yetkazish uchun qoʻllaniladi.

Biroq, ayrim hollarda, masalan, ommaviy axborot vositalari matnlarida, kriminologik leksika ekspressiv xususiyatga ega boʻlishi mumkin. Qotillik yoki jinoiy guruh kabi soʻzlar auditoriyaga nisbatan hissiy taʼsirni kuchaytirish uchun qoʻllaniladi [4, 155-171 b]. Bu turli kommunikativ vaziyatlarga moslashuvchi leksikaning pragmatik xususiyatlarini bildiradi. Oʻzbek tilidagi kriminologik leksika boshqa tillar bilan tarixiy aloqalarni aks ettiruvchi oʻzlashuvlarga boy. Rus tilidagi “sud”, “prokuror”, “advokat” kabi soʻzlar oʻzbek tiliga XIX – XX asrlarda huquq tizimining rivojlanishi bilan bogʻliq holda faol kirib kela boshladi. [4, 155-171 b]. “Jinoyat” ba “adolat” kabi arabcha oʻzlashmalar islom huquqiy anʼanalari bilan bogʻliq boʻlgan chuqur tarixiy ildizlarga ega [6, 110-122 b]. “Jazo” ba “mukofot” kabi forscha soʻzlar madaniy va lingvistik aloqlar orqali soʻz boyligini oshiradi [2, 23-32 b].

Etimologik tahlil shuni koʻrsatadiki, oʻzlashgan soʻzlar oʻzbek tilining fonetik va morfologik normalariga moslashib, semantik asosini saqlab qoladi. Masalan, arabcha “jinoyat” soʻzi oʻzbek tiliga toʻliq singib ketgan va kriminologiyada asosiy termin sifatida qoʻllaniladi [6, 110-122 b].

Kriminologik leksikaning pragmatik xususiyatlari uni qoʻllash kontekstiga bogʻliq. Yuridik hujjatlarda terminlar qonunchilik normalariga mos kelishi uchun imkon qadar aniq boʻlishi kerak [1, 45-50 b]. Masalan, huquqiy mazmundagi “huquqbuzarlik” termini yuridik kontekstda muayyan huquqbuzarlikni bildirsa, ilmiy matnlarda nazariy jihatlarni muhokama qilish uchun kengroq maʼnoda foydalanish mumkin [3, 156-161 b].

Ommaviy axborot vositalarida kriminologik leksika koʻpincha jamoatchilikni xabardor qilish hamda eʼtiborni jalb etishga qaratilgan kommunikativ funksiyani bajaradi. Bu esa ushbu leksikani Oʻzbekistonda, ayniqsa, jinoyatchilik va huquq – tartibot masalalarini muhokama qilish kontekstida jamoatchilik fikrini shakllantirishning muhim vositasiga aylantiradi. [4, 155-171 b].

Ingliz tilidagi kriminologik leksikani quyidagi leksik – semantik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Jinoyat turlari: (qotillik - murder), (o'g'rilik - theft), (talonchilik - robbery).
2. Yuridik jarayonlar: (ayblov - prosecution), (himoya - defense), (sud - trial / court).
3. Jazo turlari: (jarima - fine), (qamoq - imprisonment), (jazo - punishment).
4. Subyektlar: (jinoyatchi - criminal), (prokuror - prosecutor), (advokat - defense attorney).
5. Tergov harakatlari (so'roq qilish - interrogation), (yuzlashtirish – confrontation), (tanib olish uchun ko'rsatish - identification lineup), eksperiment – experiment), (tintuv – search), (ekspertiza - expert examination)
6. Ehtiyot choralari: (tilxat – written pledge), (shaxsiy kafillik – guarantee), garov – bail), (uy qamog'i - house arrest), (qamoq – detention, jail)

Ushbu tizimlashtirish kriminologik leksikaning tuzilishini va uning yuridik hamda ilmiy matnlarda funksional rolini aks ettiradi [1, 45-50 b].

Natijalar. Kriminologik leksika ko'p qatlamli bo'lib, unda asosiy so'zlar turkiy ildizlarga ega, ammo fors, arab, rus va ingliz tillaridan o'zlashmalar katta o'rin tutadi. Masalan, “jinoyat” so'zi arab tilidan, “sud”, “prokuror” so'zlari rus tilidan kirgan. Ingliz tilidagi terminlar turli tillardan, xususan lotin va fransuz tillaridan ham olingan bo'lib, ular huquqiy va kriminologik sohada standartlashtirilgan. Leksikaning semantik aniqligi yuridik jarayonlarning qat'iyligiga xizmat qiladi, chunki har bir termin o'z kontekstida aniq belgilangan ma'no kasb etadi.

Morfologik tahlilda o'zbek tilida so'z yasash qonuniyatlari asosida kriminologik so'zlar shakllantiriladi, bu jarayon ingliz tilidagi prefiks va suffikslar orqali yangi so'z hosil qilishga o'xshashlik ko'rsatadi. Stilistik xususiyatlari jihatidan, kriminologik leksika asosan neytral va rasmiy uslubda bo'lib, huquqiy va ilmiy matnlarda qo'llaniladi. Ammo ommaviy axborot vositalarida hissiyotli va ekspressiv ma'nolar ham paydo bo'ladi. Pragmatik jihatdan, ushbu leksika yuridik aniq ma'nolarni ifodalash bilan birga, jamoatchilikni xabardor qilish va ijtimoiy fikrni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Ingliz tilidagi kriminologik leksika murakkab va ko'p qirrali terminologik qatlam bo'lib, o'ziga xos roman va german tillaridan olingan o'zlashmalar bilan birlashtiradi [2, 23-32 b]. Uning semantik, morfologik va stilistik xususiyatlari yuridik va ilmiy kontekstda aniqlik va funksionallikni ta'minlaydi [3, 156-161 b]. Leksik – semantik guruhlarni tizimlashtirish, pragmatik jihatlar tahlili leksikaning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. [4, 155-171 b]. Ushbu tadqiqot kriminologiya sohasida ingliz terminologiyasini rivojlantirish, uni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish va ilmiy bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi. [5, 15-20 b].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kriminologik leksika o'zbek va ingliz tillarida lingvistik, semantik va pragmatik jihatdan boy va murakkab qatlamdir. U ko'p tilli o'zlashmalar, tilning morfologik qonunlari va kontekstga moslashish xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu leksika yuridik jarayonlarning aniqligi va standartlashtirilgan kommunikatsiyasini ta'minlashda muhim o'rin tutadi, shu bilan birga, jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishga yordam beradi. O'zbek tilidagi kriminologik terminologiyaning rivojlanishi, ayniqsa, boshqa tillardan o'zlashmalarni to'g'ri assimilyatsiya qilish orqali, huquqiy va ilmiy sohalarda o'ziga xos va samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Kelajakda ushbu sohada terminlarning yanada standartlashtirilishi, ilmiy tadqiqotlar orqali ularning funktsional imkoniyatlari kengaytirilishi va xalqaro hamkorlik doirasida yanada moslashtirilishi muhim vazifa bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Юнусова Х. Э., Усаров У. А. “Лексико-семантический аспект изучения ирригационной терминологии узбекского языка”. Cyberleninka.ru, с. 45-50.
2. F. Abdullayev “O'zbek tilining terminologiyasi”. Toshkent: Fan, 1998, 23 – 32 b.
3. Майоров А. П. “Дескриптивная и оценочная лексика в текстах СМИ как объект лингвистической экспертизы”. Интерпретация текста: лингвистический, литературоведческий и методический аспекты, Cyberleninka.ru. 2017, с. 156-161.
4. Ахметова М. В. “Лексические регионализмы и локализмы в русскоязычном Интернете”. Русский язык и новые технологии, Cyberleninka.ru.2014, с. 155-171.
5. N. Mahmudov. “O'zbek tilining leksik qatlamlari va ularning tarixi”. Toshkent: O'zbekiston, 2010, 15 – 20 b.
6. Sh. Rahmatullayev. “O'zbek tilining etimologik lug'ati”. Toshkent: Universitet, 2000, 110 – 122 b.